

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS KASB – HUNAR TA'LIMI
VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIYOT-GEOGRAFIYA fakulteti

EKOLOGIYA kafedrası

“Umumiy Ekologiya” fanidan

KURS ISHI

Qabul qiluvchi:

Axmedova D.

Topshiruvchi:

331-guruh talabasi

Djabborova X.

Farg'ona 2013

Mavzu: «Qizil Kitob» va uning ahamiyati

Reja:

1. Kirish.

2. Asosiy qism.

2.1. «Qizil Kitob» va uning o'rne.

2.2. O'zbekiston Respublikasining «Qizil Kitob»i.


2.3. O'zbekiston qo'riqxonalarining qisqacha tarixi.

2.4. O'zbekiston «Qizil Kitob»ining zarurligi.

2.5. Kelajak oldidagi burchimiz.

3. Xulosa.

4. Foydalanilgan adabiyotlar.



*"«Qizil Kitob» — bu hujjat bo'lib u
Insonning vijdonidir. Har qaysi millat
dunyo oldida o'zining tabiat boyliklarini
asrash mas'uliyatini olgan".*

(Xalqaro «Qizil Kitob» dan)

1. Kirish. Tabiatni, shu jumladan uning ajralmas qismi o'simliklar dunyosi va hayvonot olamini muhofaza qilish ayni zamonning eng muhim muammolaridan biriga aylandi.

Respublikamizning xilma-xil, foydali turlarga boy, bebaho o'simliklarni va yo'qolish xavfi ortib borayotgan hayvonlarni muhofaza qilish bizning muqaddas burchimizga aylanmog'i lozim. Biz faqat foydali o'simliklarnigina emas, O'zbekiston hududida o'sayotgan xar bir turni asrab avaylashimiz va ularni kelgusi avlodlarga hozirgidan ham a'lo darajada in'om etishimiz kerak.

Insonning salbiy ta'siri natijasida o'simlik qoplamlari, turlarining soni va hayvonot olami turlari tobora kamayib ketmoqda. Tabiatdan oqilona foydalanmaslik tufayli yo'qolib va kamayib borayotgan turlarni muhofaza qilish maqsadida maxsus hukumat qarorlari asosida 1979-yilda O'zbekiston Respublikasining «Qizil Kitob»i ta'sis etildi. «Qizil Kitob»ga kiritilgan xar bir tur o'simlik va hayvon uning xavf ostida turganidan dalolat beradi.

2.1. «Qizil Kitob» va uning o'rne.



«Qizil Kitob» - nima? Bu xavf va umid kitobidir. Bu kitobni boshqacha qilib qayg'u-alam kitobi ham deyiladi, chunki bu kitobda yer yuzidagi yo'qolib ketayotgan hayvon zotlari va o'simlik turlarini o'zida mujassamlashtirgan. «Qizil Kitob» - harakatga chaqiruvchi kitobdir.

Birinchi Xalqaro «Qizil Kitob» 1949-yil nashr etilgan bo'lib, u 200 turdagi qushlar, 100 turga yaqin sutemisuvchilar va taxminan 25000 ga yaqin o'simliklarni o'z ichiga olgan. Dunyoning ko'pgina davlatlari olimlari tomonidan butun dunyoda yo'qolib ketayotgan va juda kam uchraydigan hayvonlar, o'simliklar dunyosini himoya qilish va ularni saqlab qolish uchun Tabiat va tabiat resurslarini himoya qilish birlashmasining «Qizil Kitob»i (XTHQB) tashkil etildi. Bu kitob chet elda 60-70 yillarda chop etildi. 1-2- tomida sutemizuvchilar, qushlar haqida, 3-4-tomida esa suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar, sudralib yuruvchilar va baliqlar haqida so'z yuritiladi.

«Qizil Kitob» tabiatni sevuvchilar, mutaxassislarni diqqatini o'ziga tortib, hamma mintaqada mashhur bo'ldi. Bu kitob xuddi kalendardek bezalgan bo'lib, uning har bir varag'i har xil rangdadir. Har qaysi rangni o'z ma'nosi bo'lib, masalan, qizil rangda yozilgan hayvon zotlari va o'simlik turlarining yo'qolib ketayotgani va ularning himoyaga muhtojligini bildiradi.



Yaguar



Afrika Arsloni

Yer yuzida hayvon zotlari va o'simlik turlarining yo'qolib ketishining ikki sababi bor bo'lib, *birinchi sababi* — bu tabiiy sharoitning o'zgarishi natijasida bo'lsa (tabiiy sabab), *ikkinchi sababi* esa — (antropogen) inson harakatlari natijasidir.

Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi. Yer yuzidagi hayotni ta'minlashda o'simliklar dunyosi, ayniqsa, o'rmonlarning ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi vaqtda yer yuzi quruqligining 25 % ni o'rmonlar tashkil etadi. Ular shimoliy yarim sharqda va tropik mintaqalarda tarqalgan. Biroq hozirgi kunda o'rmonlarning holatini yaxshi deb bo'lmaydi. Chunki, har yili 3 mlrd m³ hajmda o'rmonlar qirqilmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich yaqin yillar ichida 1,5 martaga ortishi mumkin.


Insoniyatni, ayniqsa, tropik va subtropik o'rmonlar muammosi tashvishga solmoqda. U yerlarda yiliga dunyo miqyosidagi qir qilishi kerak bo'lgan o'rmonlarning yarmidan ko'pi kesib tashlanmoqda. 160 mln gektar tropik o'rmonlar vayron bo'lgan, atigi yiliga 11 mln gektar maydon tiklanmoqda. Floraning kamayib ketishi “«Qizil Kitob»” yaratilishiga sabab bo'ldi.



Sochi

Yo'qolish xavfidagi turlar soni
(Xalqaro «Qizil Kitob» ma'lumoti bo'yicha)

№	Taksonlar	Turlar	Kenja turlar	Jami	Umumiy turlar soniga nisbatan % hisobida
1	Sut emizuvchilar	227	93	320	6,2
2	Qushlar	264	167	431	4,6
3	Sudralib yuruvchilar	74	61	135	1,8
4	Amfibiyalar	34	7	41	2,8
5	Chuchuk suvdagi baliqlar	169	25	194	3,5
6	Yuksak o'simliklar	25000 dan kam emas			10 dan kam emas



Dunyoda umumiy qushlar va hayvonlarning 1/4 qismi tabiiy sabablar natijasida yo'qolgan bo'lsa, 3/4 qismi esa inson ta'sirida yo'qolgandir. Oldin bu raqamlarni faqat biologiya mutaxassislari bilishsa, endi esa millionlab odamlarga ham ayon bo'ldi va insonlar oldida savol tug'ildi: Inson, sen nima qilyapsan? To'xta - sen o'z uyingni buzyapsan!

Uzoq Sharq qoplani

Hayvon va o'simlik dunyosini asrashda ko'pgina amaliy ishlar qilinib va ularni hisobga olib har qaysi davlat, viloyat, tuman va mintaqalarda o'z «Qizil Kitob»lari tashkil etilyapdi. O'zbekiston «Qizil Kitob»i ham 1984 yilda tashkil topgan. Unda ko'pgina o'simlik turlari va hayvon zotlari kiritilgan. Masalan, o'simliklardan lolaning barcha turlari, anzur piyozi, boychechak va h.z.





Karkidon

«Qizil Kitob» haqida yana bir muhim joy bo'lib, «Qizil Kitob»ning sahifalari hech qachon tugallanmaydi, doimo uning sahifalarini yangi o'simlik turlari va hayvon zotlari bilan to'ldirilib boriladi.

«Qizil Kitob»ning sahifalarini qisqartirish uchun inson madaniyati va xulqini doim oshira borish kerak, bu olimlar oldida qo'yilgan muhim muammolardan biridir.



2.2. O'zbekiston Respublikasining «Qizil Kitob»i



Yer kurrasida hozirgi vaqtda 670 ming (shundan 500 mingi gulli o'simliklar) o'simliklar va 1,5 million hayvon turlari mavjud bo'lib, ularning 93 foizi uchun quruqlik va 7 foizi uchun suv yashash muhiti hisoblanadi. Turlarning hosil bo'lishi va ularning yo'qolib ketishi sababi evolyutsion taraqqiyot jarayoni bo'lib, yerda geologik sharoitlarning o'zgarishiga ham bog'liqdir. Ammo odamning kelib chiqishi natijasida bu tabiiy jarayon buzila boshladi, hayvon va o'simliklarning antropogen (inson faoliyati) ta'sirlari natijasida yo'qolib borish jarayoni tezlasha boshladi. Odam tomonidan yangi yerlarning, orollarning va kontinentlarning o'zlashtirilishi natijasida butun sayyora masshtabida fauna va floraning xilma-xilligi tobora kamayib borish jarayoni kuzatilmoqda.

Turlarning qirilishi qadim zamonlardayoq boshlangan edi. O'n minglab yillar ilgari ovchilar tomonidan mamontlar, qalin junli karkidonlar, gigant bug'ular, g'or arsloni va ayiqlari, o'rta asrlarda Yevropa turi, Steller sigiri qirilib ketdi. Hozirgi biz yashab turgan davrda turlarning yo'qolib ketish jarayoni juda jadallik bilan davom etmoqda. 1600-yildan 1875-yilgacha sut emizuvchilarning 63-turi, qushlarning 74 turi yo'qolib ketdi. Keyingi yillarda har yili 1 dan 10 gacha hayvon va 1 tadan o'simlik turlari yo'qolib ketmoqda. Hozirgi vaqtda umurtqali hayvonlarning 600 ga yaqin turi, juda ko'p o'simliklar turlari butunlay yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi.

O'simlik va hayvon turlarining tobora yo'qolib borish xavfi mamlakatlar va butun dunyo miqyosida zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ehtiyojini tug'dirmoqda.

1948-yilda tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi tuzildi. Bu tashkilot flora va faunani muhofaza qilishga

qaratilgan hamma ishlarni birlashtiradi. Mazkur xalqaro uyushma 1973 yilda «qora ro'yxat»ni chop etdi, unda batamom yo'qolib ketgan hayvonot turlari ro'yxati keltirilgan.

«Qizil Kitob» xavf-xatar belgisi. Bu kitobga kam va yo'qolib ketayotgan o'simlik va hayvonlarning turlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

O'zbekistonda o'simlik va hayvon turlari soni 27000 dan ortiq bo'lib, ulardan hayvon turlari 15000 dan ortiq, o'simliklar, zamburug'lar va suv o'tlari esa 11000 atrofida. O'zbekiston Respublikasi hududida hozirgi kunda 4500 ga yaqin gulli o'simlik turlari mavjud. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko'pgina kamyob va endemik turlar mavjud. Bunday turlarning soni 400 atrofida bo'lib, ular O'zbekiston florasining 10-12 foizini tashkil qiladi.



Gartenziya.

O'zbekiston florasining yo'qolib ketish xavfi ostida turgan 163 tur o'simlik «Qizil Kitob»ning 1984-yilgi nashriga kiritilgan, yangi «Qizil Kitob»da esa (1998) kiritilgan o'simlik turlarining soni 301 taga yetdi.

O'zbekiston faunasida umurtqasiz hayvonlarning 677 turi (sut emizuvchilar-108, qushlar-432, sudralib yuruvchilar-58, amfibiylar-2 va baliqlar-77) mavjud, umurtqasiz hayvonlar turlari esa 15 mingdan ortiq.



O'zbekiston Respublikasining birinchi «Qizil kitob»i 2 jildda nashr qilingan. Birinchi jild 1983-yilda nashr qilingan bo'lib, unga umurtqali hayvonlarning 63 turi kiritilgan. Ikkinchi jild esa o'simliklar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, 1984-yilda nashr etilgan.

Yangi «Qizil Kitob» (2003) birinchi bor davlat tilida yozilgan bo'lib, ikkinchi tomida sut emizuvchilarning 23 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 16 turi, baliqlarning 17 turi, halqasimon chuvalchamlarning 3 turi, molluskalarning 14 turi va bo'g'imoyoqlilarning 61 turi kiritilgan.

Ta'kidlash lozimki, «Qizil Kitob»ga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar ro'yxati yildan-yilga aniqroq bo'lmoqda va biz ularning yangi nashrlariga guvoh bo'lamiz.



O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ida o'simlik va hayvonot turi, oilasi, avlodi, turkumi tartibida alfavit bo'yicha ro'yxatga olingan va har bir o'simlik ko'rgazmali tarzda suratlari keltirilgan. Bu o'z navbatida noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot turlari to'g'risida keng omma tomonidan aniq tasavvurga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Irbis(Qor qoploni)

«Qizil Kitob» muhofaza choralarini kuchaytirish, qo'riqxonalar va buyurtma hududlarini kengaytirish, yovvoyi o'simliklar bilan savdosotiqni tartibga solishda litsenziyalar tizimini joriy qilish kabi bir talay muhim tadbirlarni kun tartibiga qo'yadi.

Umuman, bu kitob barcha o'simlik va hayvonotni muhofaza qilish borasida qonun asoslariga tayangan muhim hujjat hisoblanadi.

Kitobga kiritilgan o'simlik turlari 4 kategoriyaga bo'lingan:

«0» maqomi berilgan o'simlik turlari yo'qolgan yoki yo'qolish arafasida turgan o'simliklardir.

«1» maqomidagi o'simliklar turlari esa yo'qolib borayotgan turlardir. Bunga yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, saqlab qolish uchun maxsus muhofaza qilishni talab etadigan o'simlik turlari kiritilgan.



Xaltali bo'ri

«2» maqomidagi turlar esa noyob turlardir. Bu guruhga ma'lum kichik maydonlarda o'ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, tez yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan va ularning saqlanishini ta'minlash uchun jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar kiradi.

«3» maqomidagi o'simlik turlari kamayib borayotgan o'simliklardir. Bu guruhga kiritilgan o'simlik turlari ma'lum vaqt ichida soni va tarqalish maydonlari tabiiy sabablarga yoki antropogen omillari ta'siri ostida qisqarib ketayotgan turlar kiradi.



O'zbekistonning tabiiy sharoitlari rang-barang (har xil tipdagi cho'llar, adirlar, o'rmonlar, madaniy landshaftlar) bo'lganligi tufayli o'simlik va hayvonot olami ham xilma-xildir.

Jirafa

Respublikamizda o'simliklar va hayvonot dunyosini asrab-avaylash borasida bir qancha ishlar amalgam oshirilmoqda. Jumladan 1997-yilning 26-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan ratsional foydalanish» va «Hayvonlar dunyosini muhofaza qilish va undan ratsional foydalanish» qonunlari qabul qilindi.



Okapi (O'rmon jirafasi)

O‘zbekiston Respublikasi „Qizil kitob“ining asosiy maqsadi — davlat va nodavlat tashkilotlari, ilmiy tadqiqot muassasalari hamda keng jamoatchilik e’tiborini noyob va kamayib borayotgan o‘simlik turlarini muhofaza qilishga qaratilgan. O‘. Prator, T. A. Madumarov, N.M. Naraliyevlarning “O‘ZBEKISTONNING NOYOB O‘SIMLIKLARI” qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi „Qizil kitob“ining 2006-yildagi nashri asosida tayyorlangan bu qo‘llanma talaba va magistrlar, maktab o‘qituvchilari hamda tabiatni asrashga qiziquvchi kitobxonlar uchun mo‘ljallangan. Ushbu qo‘llanmada „Qizil kitob“ning 1-jildiga kiritilgan o‘simliklar haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.



2.3.O'zbekiston Qo'riqxonalarining qisqacha tarixi

Yer yuzida yildan - yil tabiat qo'ynida inson qo'li yetmagan yerlar kamayib bormoqda, ya'ni tabiatdagi cho'l, tog' va o'rmonlarning asl qiyofasini ko'rishga imkoniyat qolmayapti. Tabiatning asl muhitini va unda yashayotgan barcha jonzotlarni saqlab qolish uchun davlat tomonidan Qo'riqxonalar tashkil qilingan.



Qo'riqxona nima? Qo'riqxona — bu akvatoriya yoki territoriya, xo'jalikdan butunlay ajratilgan yer maydoni bo'lib hisoblanadi. Qo'riqxonalar - tabiatning ilmiy laboratoriyalari bo'lib, u yerda tabiat rivojlanish qonuniyatlarining murakkab tekshirishlari va kuzatishlari o'tkaziladi.

Qo'riqxonalarda ayrim hayvon zotlari va o'simlik turlari o'rganiladi, hamda bu yerda insonning har qanday ta'siri umuman ta'qiqlanadi.

David bug'isi

O'zbekistonda birinchi Qo'riqxona - **1929** yilda Turkistonning g'arb qismida tashkil qilingan. Hozirgi kunda uning yer maydoni **26840** gektar. U hozirda **Zomin** nomini olgan. Archazorlar, noyob o'simliklar va u yerda yashovchi hayvonlar: tog' echkisi, tog' qo'yi, oq tirnoqli ayiq, qushlar, suvdagi baliqlar muhofaza qilinadi.



Oq sher

Ikkinchi Qo'riqxon - **1947** yilda Toshkent viloyatining Ohangaron va Parkent tumanlari atrofida tashkil qilingan bo'lib, maydoni **451,6 km²** va hozirda **Chotqol** nomi bilan ataladi. O'simlik dunyosida 1100 dan ortiq daraxt va butalar turi bor. Qoyalarda 2 tur archa o'sadi, daryolar bo'ylari qarag'ayzorlar bilan qoplangan, qo'riqxon hayvonlarga boy. Bu yerda Sibir tog' echkisi, to'g'iz, Turkiston silovsini, oq tirnoqli ayiq, tulki, Menzbir sug'uri, jayra, relikht yumronqoziq, irbis va turli qushlar qo'riqlanadi. Ugom-Chotqol tabiiy milliy bog' 1990-yilda tashkil etilgan, maydoni 5760 km².

Nurota tog'-yong'oq qo'riqxonasi Jizzax viloyatining Forish tumanida Nurota tog'larining shimoliy yonbag'irlarida 1975-yili noyob hayvon turi Seversev qo'ylarining populyatsiyasini saqlash va yong'oq turlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan. Bu yerda 900 ga yaqin o'simlik turlari uchraydi, ularning ayrimlari endemik: Viktoriya, Korolkov, Velikiy lola turlari, Yelena chinniguli, Suvorov piyozi, poyali piyoz, Seversev ungeriyasi, daraxtsimon o'simliklar asosan soylar bo'yida uchraydi. Bu yerda asosiy o'rmon hosil qiluvchi turlarga yong'oq, yovvoyi o'rik, olxo'ri, olma, tut, tol teraklar, qayrag'och toshloq yonbag'irlarda xandon pista va Buxoro bodomi o'sadi. Maydoni 17752 km². Hayvonot olami ham juda boy. Bu yerda karakanga tulkisi, cho'l bo'risi, korsak, tosh suvsar, jayra, tolay quyoni va to'ng'iz keng tarqalgan. Cho'l hayvonlaridan bu qo'riqxonada uzunoyoq kirpi, qizil dumli, katta qumsichqonlar va Seversov tovushqonini uchratish mumkin. «Qizil Kitob»ga kiritilgan Seversov qo'yi, berkut va boshqalar bu qo'riqxonada qo'riqlanadi.

Qizilsuv tog'-archa davlat qo'riqxonasi **1975-yilda** Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida tashkil qilingan. Umumiy maydoni 30094 ga, uning 4192 gektari o'rmon bilan qoplangan. 400 dan ortiq o'simlik turlari o'sadi. Hayvonot olami ham boy, turli sutemizuvchi hayvonlarning 23 turi mavjud. Qushlarning 66 turi uchraydi, ulardan 27 turi shu yerda qishlaydi. Oq tirnoqli ayiq, bars,

Markaziy Osiyo silovsini, qizil sug'ur, Pomir oqtishi, tolay quyoni va Markaziy Osiyo takasi qo'riqlanadi.



Qizil bo'ri

Qo'riqxonada o'sadigan o'simliklarning ko'pi oziq-ovqat, dori-darmon va manzaraliligi bilan katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Maksimovich rovochi, anzur piyozi, qizilmiya, tog' rayhon, kiyiko'ti, lolalar, shirach, tog'olcha, qoraqat va boshqalar ko'p uchraydi.

Hayvonot olami ham ancha boy. Qorli cho'qqilarda bars yoki uning izlarini uchratish mumkin. Archazorlarda Turkiston silovsini va oq tirnoqli ayiq hayot kechiradi. Qo'riqxonaning janubiy qismida Markaziy Osiyo takasi, bo'ri, tulki, jayra, qizil sug'ur, tolay quyoni tarqalgan. Qo'riqxonada turli sayroqi va yirtqich qushlarni uchratish mumkin.

Payg'ambar Orol qo'riqxonasi. 1971-yilda Amudaryodagi payg'ambar orol qo'riqxonasi deb e'lon qilingan. Umumiy maydoni 4043 gektar, shundan 964 gektari to'qayzor. Qo'riqxonasi Amudaryo yuqori oqimining to'qayzor namunasi sifatida saqlash maqsadida tashkil qilingan. Bu yerda asosan Buxoro bug'usi-xongul muhofaza etiladi.

Baday to'qay davlat qo'riqxonasi 1971-yilda Qoraqalpog'iston hududida, Amudaryoning quyi oqimida tashkil qilingan. To'qay o'rmonlari va u yerdagi hayvonlarni saqlash maqsadida ochilgan.



1975-yilda Samarqand viloyatida maydoni 2360-2518 gektar bo'lgan Zarafshon davlat qo'riqxonasi tashkil etildi. Bu qo'riqxonani ornitologik deb atasa ham bo'ladi, chunki bu yerda asosan turli qushlar keng tarqalgan (160 dan ortiq tur). Asosiylaridan biri Zarafshon qirg'ovulidir.

Yo'lbars

Abdusamad davlat qo'riqxonasi 1978-yilda tashkil etilgan bo'lib, maydoni 2158 ga, shundan 1459 gektari to'qayzor. Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan. Farg'ona vodiysida saqlanib qolgan kichik-kichik noyob to'qayzorlar va shu yerlarda uchraydigan Sirdaryo qirg'ovuli, suv parrandalari hamda boshqa to'qayzorga xos bo'lgan jonivorlarni saqlash maqsadida tashkil qilingan.

Qorako'l cho'l davlat qo'riqxonasi 1971 (1990)-yilda Buxoro viloyatida amu-Qorako'l kanallari atroflaridagi uchar qumlarni saksovul-buta o'simliklari bilan mustahkamlash, irrigatsion inshootlarning qum ostida qolishidan himoya qilish, Janubiy Qizilqum fauna va flora majmualarini tiklash, uchib o'tish davrida qushlarning dam olishi va oziqlanishi uchun sharoit yaratish maqsadida tashkil qilingan maydoni 10000 ga.

Vardanzil davlat qo'riqxonasi 1975-yilda Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tashkil qilingan. Asosiy maqsadi, qadimiy Vardanzi shahrining xarobalari va 50 yoshlik saksovul daraxtlarini muhofaza qilish. Maydoni 3 km².

Arnasoy davlat qo'riqxonasi 1983-yilda Jizzax viloyatida tashkil qilingan. Maydoni 63 ming gektar. Uning tarkibiga Tuzkon ko'li ham kiradi. Asosan qushlar qo'nib o'tadigan paytida dam olishga qo'nadigan qushlarni muhofaza qilish maqsadida ochilgan. Bu yerda jingalak birqozon, qora va kulrang laylaklar, g'oz, qirg'ovul va loyxo'raklarni uchratish mumkin.

Biosfera qo'riqxonalari – inson xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'sirini ayrim regionlar va sayyora ko'lamida o'rganish, baholash, ularni nazorat qilib turish uchun xalqaro va milliy darajada tashkil etiladigan qo'riqxonalardir. Atrof-muhit ustidan sayyora miqyosida nazorat sistemasi, biosfera qo'riqxonalari ma'lumotlariga asoslanadi.

O'zbekistonda mavjud Nurota tog'-yong'oqzor qo'riqxonasi asosida biosfera qo'riqxonasi tashkil etilgan.

O'zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlari tizimiga umumiy maydoni 2164 kvadrat kilometr bo'lgan to'qqizta davlat qo'riqxonasi, 6061 kvadrat kilometr maydonni egallagan ikkita milliy bog', maydoni 12186,5 kvadrat kilometrni o'z ichiga olgan to'qqizta davlat buyurtmaxonasi va bitta noyob hayvon turlarini ko'paytirish bo'yicha Respublika markazi ("Jayron" Ekomarkazi) kiradi. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 20520 kvadrat kilometr yoki respublika umumiy hududining 5,2 foizini tashkil qiladi. Shulardan yirik va e'tiborni jalb qiladigan Chotqol o'rmon-tog' biosfera qo'riqxonasi (356,8 kv.km) Chotqol tog' tizmasining g'arbiy tarmog'ida joylashgan. Yana Hisor (814,3 kv. km) va Zomin (268,4 kv. km) tog'-archa qo'riqxonalari, Qoraqalpog'istonda joylashgan Baday-To'qay (tekislik-to'qayzordagi 64,6 kv. km maydonni egallagan o'rmonlarni himoyalaydi) qo'riqxonasi, Qizilqum (101,4 kv.km) va Zarafshon (23,5 kv.km) vodiyo-to'qayzor qo'riqxonalari, Surxon o'rmon-tog' (2136,9 kv.km) va Kitob (53,7 kv.km.) geologiya qo'riqxonalari ona tabiatimiz musaffoligi asralayotgan juda so'lim go'shalardir.

Yuqorida aytib o'tilgan Qo'riqxonalaridan boshqa respublikamiz territoriyasida yana bir qancha Qo'riqxonalar bor. Ulardan tashqari milliy bog'larimiz, tabiiy yodgorliklarimiz ham bor. Har qaysi Qo'riqxonada ma'lum bir o'simlik turlari va hayvon zotlari saqlanadi, ularning yashashi, ko'payishi, fiziologiyasi, tabiati o'rganiladi.

Qo'riqxonalar, «Qizil Kitob»ning asosiy va muhim vazifalari tabiatimizni asrashimizga qaratilgandir. Siz ham o'z hissangizni qo'shing!

2.4.O'zbekiston Respublikasi «Qizil Kitob»i» ning zarurligi.




Yer kurrasida hozirgi vaqtda 670 ming (shundan 500 mingi gulli o'simliklar) o'simliklar va 1,5 million hayvon turlari mavjud bo'lib, ularning 93% uchun quruqlik va 7% i uchun suv yashash muhiti hisoblanadi.

Kavkaz qora iloni

Turlarning hosil bo'lishi va ularning yo'qolib ketishi sababi evolyutsion taraqqiyot jarayoni bo'lib, yerda geologik sharoitlarning o'zgarishiga ham bog'liqdir. Ammo odamning kelib chiqishi natijasida bu tabiiy jarayon buzila boshladi, hayvon va o'simliklarning antropogen (inson faoliyati) ta'sirlari natijasida yo'qolib borish jarayoni tezlasha boshladi.

Odam tomonidan yangi yerlarning, orollarning va kontinentlarning o'zlashtirilishi natijasida butun sayyora masshtabida fauna va floraning xilma-xilligi tobora kamayib borish jarayoni kuzatilmoqda.



Qora dengiz afalinasi

Turlarning qirilishi qadim zamonlardayoq boshlangan edi. O'n minglab yillar ilgari ovchilar tomonidan mamontlar, qalin junli karkidonlar, gigant bug'ular, g'or arsloni va ayiqlari, o'rta asrlarda Yevropa turi, Steller sigiri qirilib ketdi. Hozirgi biz yashab turgan davrda turlarning yo'qolib ketish jarayoni juda jadallik bilan davom etmoqda. 1600-yildan 1875-yilgacha sut emizuvchilarning 63 turi, qushlarning 74 turi yo'qolib ketdi. Keyingi yillarda har yili 1 tadan 10

tagacha hayvon va 1 tadan o'simlik turlari yo'qolib ketmoqda. Hozirgi vaqtda umurtqali hayvonlarning 600 ga yaqin turi, juda ko'p o'simliklar turlari butunlay yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi.



O'simlik va hayvon turlarining tobora yo'qolib borish xavfi mamlakatlar va butun dunyo miqyosida zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ehtiyojini tug'dirmoqda.

1948 yilda tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi tuzildi. Bu tashkilot flora va faunani muhofaza qilishga qaratilgan hamma ishlarni birlashtiradi. Mazkur xalqaro uyushma 1973 yilda «qora ro'yxat»ni chop etdi, unda batamom yo'qolib ketgan hayvonot turlari ro'yxati keltirilgan.


Zubr.

Jahon ««Qizil Kitob»i» 1979 yilgacha chop etildi, shuningdek sobiq SSSR da ham «Qizil Kitob» 1979 yilda chop etildi. «Qizil Kitob» xavf xatar belgisi. Bu kitobga kam va yo'qolib ketayotgan o'simlik va hayvonlarning turlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

O'zbekiston o'simlik va hayvon turlari soni 27000 dan ortiq bo'lib, ulardan hayvon turlari 15000 dan ortiq, o'simliklar, zamburug'lar va suvo'tlari esa 11000 atrofida.

O'zbekiston Respublikasi hududida hozirgi kunda 4500 ga yaqin gulli o'simlik turlari mavjud. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko'pgina kamyob, endem va relikt turlar mavjud. Bunday turlarning soni 400 atrofida bo'lib, ular O'zbekiston florasining 10-12% ini tashkil qiladi.

Zarafshon vohasining florasini 2600 tur, Samarqand viloyatining 1700 tur, undan 201 tur dorivor o'simliklardir.



Triton

O'zbekiston faunasida umurtqasiz hayvonlarning 677 turi (sut emizuvchilar -108, qushlar - 432, sudralib yuruvchilar - 58, amfibiyalar - 2 va baliqlar - 77) mavjud, umurtqasiz hayvonlar turlari esa 15 mingdan ortiq.

O'zbekistonning birinchi «Qizil Kitob»i 1983 yilda nashr qilingan bo'lib, unga umurtqali hayvonlarning 63 turi kiritilgan edi.

Yangi «Qizil Kitob» (2003) birinchi bor davlat tilida yozilgan bo'lib, ikkinchi tomida sut emizuvchilarning 23 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 16 turi, baliqlarning 17 turi, xalqasimon chuvalchaglarning 3 turi, mollyuskalarning 14 turi va bo'g'imoyoqlilarning 61 turi kiritildi.

Ta'kidlash lozimki, «Qizil Kitob»ga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar ro'yxati yildan-yilga aniqroq bo'lmoqda va biz ularning yangi nashrlariga guvoh bo'lamiz.



Burgut.

O'zbekiston Respublikasi «Qizil Kitob»ida o'simlik va hayvonot turi, oilasi, avlodi, turkumi tartibida alfavit bo'yicha ro'yxatga olingan va har bir o'simlik ko'rgazmali tarzda suratlari keltirilgan. Bu o'z

navbatida noyob va yo`qolib borayotgan o`simlik va hayvonot turlari to`g`risida keng omma tomonidan aniq tasavvurga ega bo`lishlariga yordam beradi.

«Qizil Kitob» muhofaza choralarini kuchaytirish, qo`riqxonalar va buyurtma hududlarini kengaytirish, yovvoyi o`simliklar bilan savdo-sotiqni tartibga solishda litsenziyalar tizimini joriy qilish kabi bir talay muhim tadbirlarni kun tartibiga qo`yadi.

Umuman, bu kitob barcha o`simlik va hayvonot muhofaza qilish borasida qonun asoslariga tayangan muhim hujjat hisoblanadi.

Sochi



2.5.Kelajak oldidagi burchimiz.



Tabiatni asrash va boyliklaridan tejamkorona foydalanish insoniyat oldidagi eng muhim muammolaridan biri. Tabiat ehson - tuhfarini ko'r - ko'rona sarflash va uning boyliklarini talon-taloj qilishga hech kimning haqqi yo'q.

Tabiat haqida qayg'urish - insoniyat o'zi haqida qayg'urishdir, chunki inson tabiatning farzandidir. Tabiat uchun yetkazilgan zarar insonning o'ziga qaratilgan zarardir. Texnika va ilmiy taraqqiyotning rivojlanishi insonning tevarak atrofga bo'lgan ta'sirini kuchaytirdi, bu esa hayvon va o'simlik dunyosining qashshoqlanishiga olib keldi. Bizning bu xatolarimizni kelajak avlod kechirarmikan? Yo'q. Bizdan oldingi qadimgi avlodlarimiz flora va fauna dunyosini tarixiy va madaniy yodgorliklarni shafqatsizlarcha qirishgan, qaysikim, endi ular haqida biz faqatgina rasmlar, qo'lyozmalar, arxeologik topilmalar orqali bilamiz. Lekin bu bilan biz ularni qattiq qoralay ham olmaymiz, chunki ularning ongi - bilimlari yetarli darajada emas edi. Ammo bizning zamonamiz insonlarini kelajak avlod kechirmaydi - sababi, biz ixtisoslashgan, takomillashgan va mukammal insonlardirmiz.

Tabiat o'zining go'zalligi bilan o'ziga insonoyatni jalb etadi. Har bir kishini maftunkor tog'larni qoplab turgan doimiy muzlar, ulardagi xushbo'y gullar, dorivor o'simliklar, hayvon turlari, toza havo, sho'x sharsharalari, muz chuqqilari, qoyalari bilan rom etadi. Bularning hammasidan zavq olish kerak, har bir narsaning o'z qadriga yetish, tabiatdagi mo'jazzgina bir jonli mavjudotni ham asrab-avaylash lozim.

Lekin insonlar bularning qadriga yetish, zavq olish o'rniga ularga ozor yetkazishadi, masalan, tog'da endi ochilgan gullarning eng kattasi, eng chiroylisini uzib olib, guldasta tayyorlaydi, lekin o'ylab ko'rishmaydi-ki ozgina vaqt o'tib bu gullar so'lib, qurib qolishini, o'z chiroyini yuqotgan guldastani esa tashlab yuboriladi. Boshqa mamlakatlarda bunday olishda ko'pgina ishlar qilingan. Masalan, Fransiyada tog' etaklarida odamlar, uchun turli mavzularda "murojaatnoma"lar taxtakachlarda qoqib qo'yilgan, jumladan, gullarning dam oluvchi sayyohlarga murojaati: *"Bizni uzming, uzib siz bizni o'ldirasiz va bizni avlod qoldirishdan mahrum etasiz"*. Gullarni asray bilish, uning qadriga yetish har bir kishining madaniyati va tarbiyasidan darak beradi.



Xrizantema.

Yovvoyi gullar — bu hammaning boyligidir. Agarda bunday gullar yo'qolib ketsa tabiat qashshoqlanib qoladi va tog', yaylovlarimiz o'z chiroyi va ko'rkini yo'qotadi. Shuning uchun biz tabiatning barcha jonzotlarini avaylaymiz, ularni asray olishimiz, Ona Vatanimizning har bir burchagini saqlashda o'z kuchimizni sarflashimiz kerak. Tabiat faqat bizgina emas, balki kelajak avlodimiz uchun ham kerak.

O'simlik va hayvonot olami vakillarini saqlab qolishning eng asosiy yo'li qo'riqxonalar, buyurtma maskanlarini ko'plab tashkil qilishdir.

Ekologik ma'lumot, ta'lim-tarbiyaning tub ma'nosi — bu tabiat, bizni o'rab turgan borliqqa nisbatan hurmat, uning yashil nabototlari, harakatdagi jonivorlar, oqayotgan zilol suv, tanimizga kirayotgan havo, ona — yerga nisbatan e'tibordan iborat.



Koala

Tabiatni sevgan insonlar, uning har bir qarich yerida bo'layotgan ijobiy va salbiy o'zgarishlarni sezadi, kuzatadi, tabiatga yordam beradi, ya'ni, yiqilgan butani tiklaydi, kasal hayvonni davolaydi, iflos suvni tozalashga harakat qiladi, yong'inni o'chiradi va hokazo. Insonning bunday ijobiy harakatlari uning koinotdagi o'rni va shu yerni muhofaza qilishga qobilligidir.

3. Xulosa. Atrof – muhitning tozaligini saqlash faqat fauna va flora uchungina emas, balki inson uchun ham kata ahamiyatga ega, chunki uning sog'lig'i atrof – muhitning holatiga to'g'ridan – to'g'ri bog'liqdir. Shuning uchun ham ichimlik suvlarining tozaligini saqlash, zararli kimyoviy moddalardan qishloq xo'jaligida foydalanishni kamaytirish, shaharlarda havoning ifloslanishini kamaytirish juda katta ahamiyatga ega. Respublikamizda hayvonlarni muhofaza qilish va hayvonot olami boyliklaridan oqilona foydalanishda hal etilmagan masalalar ko'p. Bu masalalarni hal qilish xalq ommasining tabiat muhofazasi, tabiatdan foydalanish haqidagi bilim darajasiga ko'p jihatdan bog'liq. Aholining ekologik tarbiyasi qanchalik yuqori bo'lsa, tabiatdan oqilona foydalanish to'g'risidagi madaniyat ham shuncha yuqori bo'ladi. Atrof – muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish to'g'risidagi qonunlarga rioya qilish mamlakatimizning hamma fuqorolari uchun majburiydir.

4. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmatqul Ergashev, Temur Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T.: "Yangi asr avlodi", 2005.
2. A. Abdukarimov, A. G'ofurov "Biologiya". Toshkent 2008.
3. O'. Pratorov, A. To'xtayev "Botanika" Toshkent 2009.
4. O. Mavlonov "Zoologiya" Toshkent 2005.
5. www.google.ru
6. www.google.co.uz
7. www.Ulugov.uz- "Qizil kitob" haqida
8. www.uznature.uz—O'zbekiston "«Qizil Kitob»"ining dolzarbligi.
9. www.uzstudent.uz—Referat—Qizil kitob.
10. www.ziyonet.uz—Kutubxona—Ekologiya—Ekologik muammolar.